

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA № VY33552027**

1. Loyiha turi: **Shartnoma**
2. Loyiha nomi: Bog'ot tuman tibbiyot birlashmasi va "Xorazm dori-darmon" MCHJ o'rtasida tuzilgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi №1/92-A12
3. Loyiyaning ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:  
**Bog'ot tuman tibbiyot birlashmasi** tomonidan 2022-yil 31-yanvarda ishlab chiqilgan va 2022-yil 31-yanvar kuni dasturga kiritilgan.  
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog'ot tuman yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti**



**D.Matiyazov**  
01.02.2022 yil

«31» yanvar 2022' yil

Bog'ot shaharchasi

«Xorazm Dori-Darmon» mas'uliyati cheklangan jamiyati bundan buyon matnda «Sotuvchi» deb ataluvchi nomidan direktor S.Q.Bobojonov ustavga asosan faoliyat ko'rsatuvchi, ikkinchi tomondan Bog'ot tuman tibbiyot birlashmasi bundan buyon matnda «Xaridor» deb ataluvchi nomidan A.J.Saidov ustavga asosan faoliyatini amalga oshiruvchi quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

### I. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» «Xaridor»ning talabnomasi asosida O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yxatdan o'tgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan mahsulotlarni sotadi, «Xaridor» esa olgan tovarning xaqini «Sotuvchi»ning bankidagi tegishli xisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnomaning mo'ljallangan summasi 7 185 946.66 (etti million bir yuz sakson besh ming to'qqiz yuz qirq olti so'm 66 t) QQS siz so'mni tashkil qiladi (bu summaga transport xarajatlari kirmaydi).

1.3. Shartnomaning mo'ljallangan summasi QQS bilan jami so'mni tashkil qiladi (bu summaga transport xarajatlari kirmaydi).

1.4. Sotilgan tovarlarning umumiy bahosi, turi, soni, narxi spesifikatsiyada va hisob-varaqida kayd etiladi.

### II. MAXSULOT SIFATI

2.1. «Sotuvchi» «Xaridor»ga O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yxatdan o'tgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan, sifat, markirovka va o'ramlari farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan, ishlatish muddati 80%dan kam bo'lmagan dori vositalari va tibbiy buyumlarni sotadi. Yaroqlilik muddati 80% kam bo'lsa, «Xaridor» bilan kelishilgan xolda sotib olinadi.

### III. JO'NATISH ShARTLARI

3.1. «Xaridor» giyohvand va psixotrop dori vositalari hamda prekursorlarni sotib olishda ularning muomalasi bilan bog'lik faoliyat uchun olingan litsenziya nusxasini «Sotuvchi»ga takdim qilishi lozim.

3.2. Sotilgan dori vositalarini qaytarish masalasi ikkala tomon kelishgan holda amalga oshiriladi.

3.3. Ushbu shartnomaning 4.1. bandiga muvofiq to'lov amalga oshirilgandan so'ng 10 kun muddat ichida tovarlarni jo'natish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar ikkala tomon kelishgan xolda qoplanadi.

3.4. Tovarlarini yetkazib berish sanasi etib, taraflar tomonidan xisob varaqiga qo'l qo'yilgan kun belgilanadi.

### IV. TO'LOV ShARTLARI

4.1. To'lov tartibi oldindan mahsulot umumiy narxining 30% shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida to'lashi, kolgan 70% summani esa taraflar o'rtasida qabul qilish olish akti imzolanganidan keyin 15 kun mobaynida amalga oshiriladi.

4.2. Agarda to'lov, shartnomaning 4.1 bandiga asosan amalga oshirilmagan takdirda, «Sotuvchi» ushbu shartnomani bir taraflama bekor qilish xuquqiga ega bo'ladi.

4.3. Agarda "Xaridor" ushbu shartnoma imzolanganidan keyin 15 (O'n besh) kun ichida mahsulotni tanlab olishni amalga oshirmasa, «Sotuvchi» ushbu shartnomani bekor qilish xuquqiga ega bo'lib, oldindan to'langan to'lov qiymatini 5% ushlab qolgan xolda qaytarilishi lozim bo'ladi

### V. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tovarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va quyidagi miqdorda jarima to'laydi

5.2. Tovarni to'liq topshirmaganlik uchun Yetkazib beruvchi har bir kechiktirilgan kuniga topshirilmagan tovar qiymatining 0,5% miqdorida penya to'laydi, lekin ushbu summaning 50 % dan oshib ketmasligi lozim.

5.3. Sifati bo'yacha shartnoma shartlariga javob bermaydigan tovarni topshirganlik shuningdek butlanmagan tovarni topshirganlik uchun aybdor taraf tovar qiymatining 20% miqdorida jarima to'laydi.

5.4. Jo'natilgan tovarlarga oid to'lov yoki tovar-transport hujjatlarining nusxasini belgilangan muddatda yubormaganlik yoki tovarlar jo'natilganligi to'g'risidagi boshqa axborotni taqdim etmaganlik uchun



yetkazib beruvchi sotib oluvchiga axborot taqdim etilmagan har bir holat uchun yetkazib berilayotgan tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi

5.5. Tovar haqini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun Buyutmachiga har bi kechiktirilgan kuniga to'lanmagan summaning 0.4% miqdorida, lekin ushbu summaning 50% dan oshmaydigan miqdorda o'zining mahsus hisob raqamidan penya to'laydi.

5.6. Neustoykani to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi

#### VI. FORS-MAJOR XOLATLARI

6.1. Taraflarning birontasi ham boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan xolatlar (Fors-major): tabiiy ofatlar, urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, qamal xolati, eksport yoki import operatsiyalarini xukumat tomonidan ta'qiqlanishi bilan bog'liq xolda bajarmaganliklar uchun javobgar bo'lmaydi. Fors-major xolat boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida vakolatli organ tomonidan berilgan xujjatga asosan bir taraf ikkinchi tarafni zudlik bilan yozma ravishda ogohlantiradi.

#### VII. NIZONI XAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar, tomonlar o'rtasida tinch, o'zaro kelishilgan holda xamda taraflarning o'zaro javob berish muddati 5 kun bo'lgan yozma e'tirozlarining almashinuvi orqali hal etiladi.

7.2. Taraflar kelishuvi bilan xal etilmagan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Bog'ot tumanlararo iqtisodiy sudi orqali xal kilinadi.

#### VIII. SHARTNOMA MUDDATI

8.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab 30.12.2022 yilgacha qadar amal qiladi. Ammo ushbu sanaga qadar shartnomaga asosan tomonlarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlari bajarilmay qolsa, shartnoma majburiyatlar bajarilguncha amal qiladi.

#### IX. UMUMIY XOLATLAR

9.1. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirish va ko'shimchalar faqat yozma tartibda rasmiylashtiriladi va tomonlar imzolab, muxrlagandan so'ng asosiy shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

9.2. Ushbu shartnomaga oid, lekin shartnomaga kiritilmasdan qolgan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal etiladi.

9.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilib bir xil yurdik kuchga ega hisoblanadi.

9.4 Shartnoma imzolangan va G'aznachilik bo'limlaridan ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan qonuniy kuchga kiradi.

#### X. TARAFLARNING POCHTA MANZILI VA TO'LOV REKVIZITLARI

«SOTUVCHI»

«Xorazm Dori-Darmon»

mas'uliyati cheklangan jamiyati

Manzil: 220100, Urganch shaxar P. Maxmud 5 uy

x/r: 20210000100491064001

Bank: O'zbekiston milliy banki Urganch bo'limi

MFO: 00547, OKED: 46460,

INN: 201018072

Tel: (+99862) 228-48-44, 228-52-35

Faks: (+99862) 228-48-91

Direktor:  S.Q. Bobojonov



«XARIDOR»

Bog'ot tuman tibbiyot birlashmasi

(byudjetdan mablag' oluvchi)

Manzil: Toshkent ko'chasi 2-uy

Tel/faks: 62-31-52-531

sh/x: 100022860332047072110054001

Byudjetdan mablag' oluvchi STIRi: 200426871

OKED: 91511

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Moliya Vazirligining

Yagona G'azna xisob varag'i

G'azna x/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Markaziy bank

MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIRi 201122919

Rahbar: \_\_\_\_\_



A.J.Saidov

Shartnoma Spesifikatsiya № 1/92-A12 31.01.2022 yil

№	Dori darmon nomi	O'lchov birligi	Soni	Baxosi	Summa
1	Azaleptol 0.1 №50 (klozapin)	up	44	38 000	1 672 000
2	Amaril 2 mg №30 (insulin)	up	5	50 000	250 000
3	Amaril MSR 2mg/500mg №30 (insulin)	up	1	95 000	95 000
4	Amitriptilin 10 mg №100	up	1	14 300	14 300
5	Amitriptilin 10 mg №50	up	2	13 000	26 000
6	Benzonal 0.1 №50 (karbamazepin)	up	1	18 000	18 000
7	BenzonalNGP 0.1 №50 (karbamazepin)	up	1.8	19 000	34 200
8	Galopril 1.5 mg №50 (galoperidol)	up	2.0	9 500	19 000
9	Glimepirid 2 mg №30 (insulin)	up	2.0	34 500	69 000
10	Karbamazepin 0.2 №20	up	81.5	12 000	978 000
11	Karbamazepin 0.2 №20	up	33.0	12 200	402 600
12	Karbamazepin 0.2 №20	up	6.0	13 000	78 000
13	Klorpromed 100 mg №50 (Xlorpromazin)	up	7.0	37 900	265 300
14	Metfogamma 850 mg №120 (insulin)	up	0.5	144 000	72 000
15	Mikstard penfil 3.0 №5 (insulin)	up	1.0	170 000	170 000
16	Morfin g/x 1% 1.0	amp	18.0	5 000	90 000
17	Omnopon 1% 1.0	amp	12.0	6 500	78 000
18	Omnopon 2% 1.0	amp	176.0	10 000	1 760 000
19	Promedol 2% 1.0	amp	14.0	8 500	119 000
20	Sibazon 0.5% 2 ml №10 ( Diazepam)	up	3.0	14 000	42 000
21	Sibazon 0.5% 2 ml №10 ( Diazepam)	up	0.5	22 000	11 000
22	Sibazon 0.005№20 ( Diazepam)	up	20.5	3 000	61 500
23	Siofor 500 mg №60 (insulin)	up	2.0	47 000	94 000
24	Siofor 500 mg №10 (insulin)	up	2.0	7 833	15 667
25	Siofor 500 mg №60 (insulin)	up	2.00	48 000	96 000
26	Siofor 850 mg №60 (insulin)	up	1.50	59 000	88 500
27	Tramadol 50 mg/ml 2.0 №5	up	23.0	15 000	345 000
28	Tramadol 50 mg №20	kaps	1.0	14 000	14 000
29	Tramadol 50 mg №20	kaps	2.0	20 000	40 000
30	Fenazepam 0.5 mg №50	up	1.6	17 250	27 600
31	Fenazepam 1 mg №50	up	2.4	22 200	53 280
32	Fenobarbital 0.1 №10	up	22.0	3 500	77 000
33	Siklodol 2 mg №50 (trigeksifenidil)	up	1.0	10 000	10 000

Jami summa: 7 185 946 so'm 66 t

